



Umida MUFTILLAYEVA,
Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi

Dotsent F.Fayziyeva taqrizi asosida

“MEHNATKASHLAR TOVUSHI” GAZETASIDA HOJI MUINNING IJTIMOY-MA’RIFIY FAOLIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Samarqand jadidchilik harakatining faol namoyandasi Hoji Muinning “Mehnatkashlar tovushi” gazetasidagi ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda muallifning noshir va publitsist sifatidagi faoliyati, gazeta sahifalarida ilgari surilgan ma’rifat, ijtimoiy adolat, mehnatkashlar manfaatlarini himoya qilish hamda jamiyat ongini uyg‘otishga qaratilgan g‘oyalari yoritiladi. Shuningdek, Hoji Muinning 1918 – 1921-yillar oralig‘idagi publitsistik faoliyatining jadid matbuoti taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Hoji Muin, jadid matbuoti, “Mehnatkashlar tovushi”, ijtimoiy-ma’rifiy faoliyat, publitsistika, “Tayoq”, G‘ozi Yunus, Saidrizo Alizoda, Sadridin Ayniy.

«СОЦИАЛЬНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ХОДЖИ МУИНА НА СТРАНИЦАХ ГАЗЕТЫ “МЕХНАТКАШЛАР ТОВУШИ”»

Аннотация

В статье проводится научный анализ общественно-просветительской деятельности Хаджи Муина в газете «Мехнаткашлар товushi». Рассматривается его деятельность как издателя и публициста, а также идеи просвещения, социальной справедливости и защиты интересов трудящихся, последовательно отражённые на страницах издания. Особое внимание уделяется значению публицистической деятельности Хаджи Муина в 1918–1921 годах в развитии джадидской печати Самарканда.

Ключевые слова: Хаджи Муин, новая пресса, «Голос трудящихся», социально-просветительская деятельность, журналистика, «Тайок», Гази Юнус, Сайдризо Ализода, Садриддин Айний.

“SOCIO-EDUCATIONAL ACTIVITIES OF KHOJA MUIN AS REFLECTED IN THE NEWSPAPER MEHNATKASHLAR TOVUSHI”

Annotation

This article presents a scholarly analysis of the socio-educational activities of Hoji Muin as reflected in the newspaper “Mehnatkashlar Tovushi.” It examines his role as both publisher and publicist, focusing on the ideas of enlightenment, social justice, and the protection of workers’ interests promoted through the publication. The study also highlights the significance of Hoji Muin’s journalistic work between 1918 and 1921 in the development of Jadid press traditions in Samarkand.

Keywords: Haji Muin, new press, “Voice of Workers”, social and educational activities, journalism, “Tayok”, Ghazi Yunus, Saidrizo Alizoda, Sadridin Ayniy.

Kirish. Samarqand jadidchilik harakatida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shaxslar orasida Hoji Muin matbuot sohasidagi faoliyati bilan alohida ajralib turadi. U jadid matbuoti doirasida o‘ziga xos publitsistik maktabni shakllantirgan namoyandalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Xususan, “Hurriyat” gazetasidan keyin uning noshirlik faoliyati boshlangan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi Hoji Muinning ijtimoiy-ma’rifiy qarashlarini izchil ifoda etgan muhim nashr sifatida maydonga chiqdi. Mazkur gazeta sahifalarida u o‘zini bir vaqtning o‘zida ham noshir, ham publitsist sifatida namoyon etib, jamiyatdagi dolzarb masalalarga faol munosabat bildirdi. Hoji Muin 1918 – 1921-yillar oralig‘ida ushbu nashrda muntazam ijodiy va tashkiliy faoliyat olib bordi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.K. Namozova, R.B. Sadiyeva, X. Ashurova, F.I. Kenjayev kabi tadqiqotchilarimiz Hoji Muinning millatparvar jurnalistligi va publitsistik faoliyatini ilmiy maqolalarida tahlil qilishgan shuningdek, ularning ilmiy tadqiqotlaridan ma’lumotlar olishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tarixiy-xronologik, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, Hoji Muinning “Mehnatkashlar tovushi” gazetasidagi ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati ochib berilgan.

Tahlil va natijalar. Hoji Muinning sermahsul ijod faoliyati “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi bilan bog‘liq. “Oktabr inqilobidan keyin samarqandda birinchi daf’a chiqarilgan gazeta shu “Mehnatkashlar tovushi” dir, buning birinchi soni 1918-yil 11-iyunda chiqdi. Ma’sul muharriri Hoji Muindir”[1].

Hoji Muin nafaqat gazetada mas’ul muharrir sifatida faoliyat yuritgan, balki o‘tkir qalam sohibi bo‘lgan tajribali jurnalist sifatida ham ajralib turgan. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi 1920-yildan e’tiboran viloyat firqa qo‘mitasi bilan viloyat ijro qo‘mining noshiri afkori bo‘lib davom etdi. Bu gazeta, bir yoqdan, xalqni hukumatga yaqinlashdirish uchun xizmat qilg‘onidek, ikkinchi yoqdan, buzuq niyat bilan hukumat idoralari g‘a kirib olib xalqni talayturg‘on unsurlar bilan muboriza etar, ular haqida doim rahmsiz suratda tanqid va kulgulik maqolalar yozar edi. 1921-chi yilda bu gazetaning oti o‘zgartilib “Kambag‘allar tovushi” qo‘yildi”[2].

Namozovaning tadqiqotlariga ko‘ra, uning ushbu nashrda qariyb ellikka yaqin maqolasi chop etilgan aniqlangan. Mazkur maqolalarda u jamiyat hayotining turli jabhalariga doir muammolarni yoritib, ularni tahliliy ruhda umumjamoaatchilik e’tiboriga havola qilgan. Uning maqolalari nafaqat tanqidiy ruh, balki jamiyatni uyg‘otish, ma’rifat va islohot g‘oyalari ilgari surish bilan ham ahamiyat kasb etgan. Aynan shunday dadil pozitsiyasi va ijtimoiy adolatni

targ'ib qiluvchi teran fikrlari o'z davrining eng faol, mas'uliyatli va ziyarak publitsistlaridan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallashiga sabab bo'lgan. Turkiston jamiyatida o'sha davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolardan biri - oilada ayollar va qizlarning o'rni masalasi "Oila tarbiya" nomli maqolasida atroflicha yoritilgan. Muallif ushbu maqolada oila institutining barqarorligida eng muhim omil sifatida tarbiya va ta'lim masalasini ko'rsatgan hamda bu ikki tushuncha oila hayotining asosiy poydevori ekanligini alohida ta'kidlagan. U o'z tahlillarida o'z vaqtida ta'lim olgan ayollar orasidan olimalar, shoira va adibalar, xatibalik darajasiga yetgan ziyolalar yetishib chiqqanini misol sifatida keltirgan. Mazkur misollar orqali u jamiyat taraqqiyoti bevosita ayollar ma'rifati bilan bog'liqligini asoslashga intilgan. "Biz Turkistonliklar ham 15-yil buladir-ki, bu dunyoda o'zgaradeg tarqiy etmak orzusi bilan yaxshi maktablar ocha boshladik, yolg'uz erkak bolalarimizni tarbita etmakka kirishdek, ammo qizlarimizning tarbiyasiga hozirgacha ahamiyat bermadik"[3].

U siyosiy, madaniy va iqtisodiy yo'nalishlardagi dolzarb mavzularni ham muntazam yoritgan. Xususan, u mehnatkashlar manfaatlari va ularning ijtimoiy ahvolidagi oid masalalarni chuqur tahlil qilib, ular nomidan dadil va prinsipial pozitsiyada publitsistik maqolalar yaratgan. Mazkur faoliyati uning o'z davrining murakkab siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini chuqur anglaganini, jamiyatdagi turli qatlamlarning ehtiyoj va muammolarini keng ommaga yetkazish orqali ma'rifiy hamda tanqidiy funksiyani bajarishga intilganini ko'rsatadi. Uni shunday maqolalarida "Kitob masalasi" nomli maqolasidir. Ushbu maqolada maktablardagi kitoblar va yetarli malakaga ega bo'lgan o'qituvchilar o'z davridagi eng katta muammolardan biri ekanligini maqolasida sabablari bilan ko'rsatib o'tgan. "Bu yil bizning ma'lum maktablarimiz kitob to'g'risida ko'p qarolinda qoldilar. Chunki turli mavzularda yozilgan maktab kitoblari bizda yo'q darajada sababi ozdir"[4].

Nafaqat jurnalistlik mahorati, balki uning ushbu gazetadagi maqolalari hamda nashr tuzilmasi orqali ko'rinadigan muharrirlik faoliyati ham e'tiborga molikdir. Manbalar tahlili mazkur gazeta tarkibida ilmiy va tajribali muharrir sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Gazeta sahifalarida Hoji Muin bilan bir qatorda G'ozzi Yunus, Saidrizo Alizoda, Sadridin Ayniy kabi taraqqiyparvar ziyolilarning maqolalari muntazam chop etilib turgan bo'lib, ular ham mazkur nashrning faol mas'ul xodimlaridan bo'lganlar. Gazetaning bosh qismida nashr nomi, chop etilgan yili va sanasi, tahririyat manzili, gazeta narxi hamda o'sha davr mafkuraviy tamoyillarini aks ettiruvchi "Birlashig, butun dunyo ishchilari!" shiori berib borilgan. "Haqoniy" imzosi bilan kichik-kichik xabarlar bosilib chiqqan. Qizig'i u xabarlarda xalqdan ko'ra hukumatga murojaat etgan[5].

Nashrning tashqi ko'rinishi, avvalo, uning rasmiy qismi orqali namoyon bo'lgan: bu bo'limda qabul qilingan qarorlar, rasmiy e'lonlar, jiddiy mavzudagi tahliliy maqolalar joy olgan. Ba'zi sonlarda esa gazetaning obuna tartibi va e'lonlari ham alohida ravishda keltirib borilgan. "Ushbu bilan e'lon qilamankim Samarqand viloyatida milliy ishlar komisarlig'i vazifasini o'tamoqqa qarshimiz. Komisar idorasi Obramof rostansida qadimgi ovozd komisarining imoratidadir shanba va chahorshanba kunlari soat 10 da 2 gacha ishi bor odamlar qabul qilinadir"[6].

Gazetaning bosh qismi doimo rasmiy materiallar - qabul qilingan qarorlar, buyruqlar va muhim e'lonlar bilan boshlanib kelgan. Mazkur turdagi e'lonlar ayrim hollarda nashrning so'nggi sahifalarida ham chop etilgan bo'lib, bu gazetaning informatsion oqimini uzluksiz ta'minlashga qaratilgan tahririy siyosati bilan izohlanadi. Shuningdek, gazeta tarkibida "Samarqand xabarlar", "Xorijiy xabarlar", "Turkiston xabarlar" kabi tematik bo'limlarning mavjudligi uning mazmuniy ko'lamining kengligini ko'rsatadi. Ushbu

bo'limlar orqali o'quvchilarga mahalliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi voqealar haqida muntazam ma'lumot berib borilgan. Mazkur tuzilma shuni anglatadiki, gazeta keng ommani jamiyatda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bilan tanishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lib, uning axborot siyosati jamoatchilik ongini shakllantirishga qaratilgan edi. Gazetaning o'z davri uchun bunday mukammal va tizimli tarzda tashkil etilishida tahririy va intellektual hissasi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, u nashrning mazmuniy konsepsiyasini shakllantirishda yetakchi rol o'ynagan.

Publitsistik faoliyatida uning ijodiy qirralari yanada keng namoyon bo'lgan nashrlardan biri - "Mehnatkashlar tovushi" gazetasidir. Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi, Oila tarbiyasi, Til masalasi, Xalq dorilfununi, Bizga nima kerak? Hajviy jurnal, Tazminot, Mehnatkashlar holindan, Ulug' bayram munosabati ila, Viyatkin alifbolari tanqidi, Maktab, muallim, kitob, Muallimlar jamiyatida, Mazluma xotunlar holindan kabi maqolalari bunga misoldir. Jamiyatning muammolariga 1-marta emas balki qayta-qayta murojaat qilib xalqqa yetqazishga harakat qilingan. 1918-yilda mazkur gazetada e'lon qilingan "Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi" nomli maqolasida Hoji Muin jamiyatda yetarlicha e'tibor qaratilmay kelinayotgan yoshlar va xotin-qizlar tarbiyasi masalasini dolzarb muammo sifatida ko'taradi. Muallif ushbu holatni millat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida baholaydi. Hoji Muinning jadid taraqqiyparvarlari orasida ajralib turishiga sabab bo'lgan muhim jihatlardan biri ham xotin-qizlar masalasiga doimiy ravishda yuqori ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyat bilan yondashganidadir. Aynan shu mavzuga qaytadan "Ulug' Turkiston" gazetasida chiqqan "Turkiston yoshlari va qizlar tarbiyasi" yuqoridagi so'zimizning asosidir. Ushbu so'ng kunlarda Turkiston markazi bo'lg'on Toshkanda «Xalq dorilfununi»ning ibtidoiy qismi nomi ila o'nlab maktablar bilan «dorilmuallim» kursi ochildi. Ammo bular qatorinda ko'pdan beri to'rt ko'z ila kutib turdikimiz bir dona «Qizlar maktabi» ochildi. Loqaq, «dorilfunun» sho'rosining kelar zamonda shunday maktablar ocharg'a tashabbus etajagi haqinda biror xabar eshitilmadi[7].

Tadqiqot natijalari ushbu gazeta matbuotchilikdagi yana bir muhim yo'nalishini yoritib berishini ko'rsatadi. Avval "Hurriyat" gazetasida orttirgan tajribasi bu yerda yanada mukammal shakllanib, ayniqsa hajviy yo'nalishning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur gazeta sahifalarida Hoji Muin tomonidan tashkil etilgan "Tayoq" hajviy jurnali dastlabki ko'rinishda o'z aksini topgan. Manbalarda qayd etilishicha, "Tayoq" jurnalining ilk namunalarini aynan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi chop etgan bo'lib, 15 qismdan iborat tarzda davomli ravishda turli sonlarda e'lon qilingan. Bu holat Hoji Muinning hajviy publitsistika orqali jamiyatdagi illatlarni tanqidiy yoritishga intilganini, shuningdek, Turkiston matbuotida hajv janrining shakllanishida uning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi.

"Tayoq"ning birinchi qismi chop etilganida, Hoji Muin ruknning aynan shu nom bilan atalish sababini o'quvchilarga izohlashga alohida e'tibor qaratgan. U satira vositasida "Tayoq" timsolining majoziy mazmunini ochib berib, uni jamiyatdagi illatlarni "urib chiqarish", ya'ni ular ustidan tanqidiy kulgi orqali kurashish ramzi sifatida talqin qilgan.

"Tayoq" ruknining mazmuni va uslubiy xususiyatlari Hoji Muinning jadid matbuotida tanqidiy-satirik yo'nalishni shakllantirishga qo'shgan hissasini ilmiy asosda yoritib beradi. Ushbu hajviy materiallar orqali u xalqning og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini pora, zulm va jaholat oqibatidagi muammolar bilan bog'lab, ularni bartaraf etishning yagona yo'li ma'rifat, adolat va yangicha tafakkurni qaror toptirishda ekanini targ'ib qilgan. "Tayoq"- to'g'rilik yo'lindan zo'raki boylardek sinib mayda-mayda bo'lib ketgancha o'z vazifasini

ado etadir. Ammo egrilikni hech vaqt qabul etmaydir".[8] "Tayoq"da turli mavzular kulgili obrazlar orqali yoritilib keyinchalik shu nomli jurnalda davom etgan, nafaqat kulguli, satira balki achchiq haqiqatlar ko'rsatilgan. "Dunyoda har bir dardning bir davosi bordirlar-ki bu g'oyat to'g'ri so'zdir. Lekin shu haqiqatni ham bilmoq kerakdir-ki har bir dardning paydo bo'lishiga insonning o'zi sabab bo'lib davosini ham o'zi topadir"[9].

Ushbu gazeta faoliyati davom etayotgan davrda jadidchilik harakatining yetakchi arboblardan biri, "jadidlar otasi" sifatida e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiy ikki safdoshi bilan birga 1919-yil mart oyida Qarshi bekligida amir lashkarlari tomonidan o'ldiriladi. O'sha paytda ularning qatl etilgani rasmiy ma'lumotlarda aks etmaganligi bois, ular ma'lum muddat "izsiz yo'qolgan" deb hisoblangan. Hoji Muin Behbudiy shaxsiyatiga katta hurmat bilan qaragan va uni o'zining ma'naviy ustozlaridan biri deb bilgan. Ustozining bunday fojiali tarzda yo'qolishi Muinning ruhiy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu davrdan boshlab uning Behbudiy haqidagi dastlabki publitsistik chiqishlari "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida e'lon qilina boshlaydi. Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi. // 1920. 8 apr, Marhum Behbudiy va rafiqlarining qanday shahid bo'lg'onliqlari. Va ular tomonidan yozilg'on vasiyatnoma. // 1921. 29 mart.[10]

Hoji Muinning "Mehnatkashlar tovushi" gazetasidagi faoliyati 1922-yilgacha davom etgan. Uning mazkur nashrni tark etishi esa davr ma'rifatparvarlari tomonidan oddiy voqea sifatida qabul qilinmagan. Bu holat jamoadosh ziyolilar orasida sezilarli e'tiroz uyg'otgan. "Osiyolik" taxallusi bilan tanilgan G'ozzi Yunus ushbu masalaga munosabat bildirib, "Burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirish" nomli maqolasini "Qizil bayroq" gazetasining 1922-yil 29-iyul sonida chop ettirgan. Maqola Hoji Muinning "Mehnatkashlar tovushi"dan ketishi munosabati bilan yozilgan bo'lib, unda muallif uning hech bir jiddiy asosga ega bo'lmagan, matbuot faoliyati mas'uliyatiga zid tarzda gazetani tark etganini ma'qullamagan. Shu bois G'ozzi Yunus Hoji Muinning qarorini nafaqat shaxsiy

tanlov, balki ijtimoiy-siyosiy vazifani bajarayotgan matbuot xodimining zimmasiga yuklangan tarixiy mas'uliyatdan voz kechish sifatida ko'rsatgan. Uning ta'kidlashicha, bunday vaziyatda gazetani tark etish jamiyatning ongli qatlamida ma'rifiy islohotlarga bo'lgan ishonchni susaytirishi, xususan, Samarqand matbuot maktabi shakllanayotgan bir pallada ma'rifatparvar ziyolining faoliyatdan chekinishi katta oqibatlariga olib kelishi mumkin edi. "Ishimizga qaraganda o'rtoq Hoji Muinning gazetadan voz kechishiga sabab "Kambag'allar tovushi" sahifasi Anvar poshsho to'g'risida Mursalimof bilan Hoji Muin o'rtasida bo'lg'on tortushida gazeta muharriri Mursalimofga tilagancha o'rin berib o'rtoq Hoji Muinga sifq bir yo'l qo'yilg'on ekan Hoji Muin shunga achchiq qilib gazetadan chiqqon. Mana bulg'on- turg'on hol"[11].

1921-yildan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi "Kambag'allar tovushi" deb atala boshlangan. Mazkur masalaga Hoji Muin o'zining "Zarafshon" gazetasining 1923-yil 3-noyabr sonida e'lon qilingan "Samarqandda matbuot ahvoli" nomli maqolasida atroflicha to'xtalib o'tgan.

Xulosa va takliflar. Hoji Muin o'z publitsistik chiqishlari orqali xalqni ma'rifatga, ilm-fan va ijtimoiy ongini yuksaltirishga da'vat etgan jadid ziyolilaridan biri bo'lgan. Uning maqolalarida mehnatkashlar manfaatlari, yoshlar va xotin-qizlar tarbiyasi kabi jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, keskin va dalillarga asoslangan holda yoritilgan. Hoji Muin faoliyatini o'rganar ekanmiz, quyidagi takliflarni berish mumkin:

Hoji Muinning publitsistik merosini tizimli o'rganish lozim;

Hoji Muinning ilmiy faoliyatini oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lardi;

Hoji Muinning ma'rifiy qarashlarini bugungi yoshlarning axborot olish madaniyati va ijtimoiy ongini rivojlantirish bilan bog'lab o'rganish juda ham ahamiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ziyov Said. "Turkiston vaqli matbuoti tarixiga materillar". Toshkent. Samarqand 1927-yil b-100
2. Hoji Muin "Samarqand matbuotining tarixi" "Zarafshon" gazetasi 1923-yil 5-may
3. Hoji Muin. "Oila tarbiyasi". "Mehnatkashlar tovushi". 1918-yil. 9-iyul
4. Hoji Muin "Kitob masalasi". "Mehnatkashlar tovushi". 1919-yil 10-yanvar
5. H. Namozova "Болшевиклар сиёсатига сиғмаган мухаррир". "Ўзбекистон матбуоти". 2002-йил №4 б-36
6. "Samarqand viloyati milliy ishlar komissari 1918-yil 7-avgustdagi 1-raqam buyrug'i" "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi. 1918-yil avgust
7. Hoji Muin. "Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi" "Mehnatkashlar tovushi". 1918-yil 28-iyun
8. Boturbek "Tayoq 1-qism" "Mehnatkashlar tovushi". 1918-yil №35
9. Boturbek "Tayoq 1-qism" "Mehnatkashlar tovushi". 1918-yil 22-noyabr
10. Namozova, N. "Hoji Muin (Ma'rifat va istiqloq fidoyisi)" monografiya. Toshkent -2023 b-126-127
11. Osiyolik "Burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirish". "Qizil bayroq". 1922-yil 29-iyul
12. Hoji Muin "Samarqandda matbuot ishlari" "Qizil bayroq" gazetasi. 1922-yil